

**ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLI IQTISODIYOT
SHAROITIDA TRANSCHEGARAVIY MUNOSABATLARGA HUQUQIY
BAHO BERISH MASALALARI**

Tog'aymurodova Zuhraxon Shuxrat qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot, transchegaraviy elektron tijorat platformalari, blokcheynlar, kriptoaktivlar, smart-kontraktlar hamda generativ sun'iy intellekt tizimlari faoliyati natijasida vujudga keladigan munosabatlarga huquqiy baho berish (kvalifikatsiya) masalalari tadqiq etiladi. An'anaviy hududiylik tamoyiliga asoslangan kollizion bog'lamalarning (lex loci contractus, lex loci solutionis, lex rei sitae) virtual makondagi inqirozi tahlil qilinadi. Elektron tijoratda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish, xorijiy elektron imzolarni tan olish hamda kriptoaktivlar va smart-kontraktlarni kvalifikatsiya qilishdagi kollizion to'siqlar qiyosiy jihatdan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, smart-kontrakt, kriptoaktivlar, blokcheyn, sun'iy intellekt, promptosentrizm, texnologik neytrallik, iste'molchi shartnomalari, lex rei sitae, Rim I reglamenti.

Аннотация. В данной статье исследуются проблемы правовой оценки (квалификации) трансграничных отношений, возникающих в условиях цифровой экономики, платформ электронной коммерции, распределенных реестров (блокчейн), криптоактивов, смарт-контрактов и систем генеративного искусственного интеллекта. Анализируется кризис традиционных территориальных коллизионных привязок (lex loci contractus, lex loci solutionis, lex rei sitae) в виртуальном пространстве. Раскрываются коллизионные аспекты защиты прав потребителей в электронной коммерции,

трансграничного признания электронных подписей и квалификации криптоактивов.

Ключевые слова: цифровая экономика, электронная коммерция, смарт-контракты, криптоактивы, блокчейн, искусственный интеллект, технологическая нейтральность, потребительские договоры, *lex rei sitae*, регламент Рим I.

Abstract. This article investigates the problems of legal characterization (qualification) of cross-border relations arising in the digital economy, e-commerce platforms, distributed ledger technology (blockchain), crypto-assets, smart contracts, and generative artificial intelligence. It evaluates the breakdown of traditional territorial connecting factors (*lex loci contractus*, *lex loci solutionis*, *lex rei sitae*) in virtual space. Conflict-of-laws issues concerning cross-border consumer protection, recognition of electronic signatures, and characterization of crypto-assets are examined.

Keywords: digital economy, electronic commerce, smart contracts, crypto-assets, blockchain, artificial intelligence, promptocentrism, technological neutrality, consumer contracts, *lex rei sitae*, Rome I Regulation.

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron tijorat tarmoqlari, blokcheyn tizimlari hamda sun'iy intellekt algoritmlarining shiddatli rivojlanishi xalqaro xususiy huquq oldiga butunlay yangi vazifalarni qo'ymoqda. Tarixan muayyan geografik makon va ashyoviy moddiylikka tayanib shakllangan klassik kollizion normalar bugungi kunda hududiy chegaralarga ega bo'lmagan virtual

munosabatlarni tartibga solishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu sharoitda huquqiy baho berish (kvalifikatsiya) muammosi alohida dolzarblik kasb etadi, chunki huquqni qo'llovchi organ amaldagi qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri an'anaviy analogi bo'lmagan yangi raqamli obyektlar va hodisalarning yuridik tabiatini aniqlashi shart.

Transchegaraviy elektron tijorat bitimlari, kriptoaktivlar aylanmasi, o'z-o'zini avtomatik ijro etuvchi smart-kontraktlar va tarmoqlar faoliyati natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlari an'anaviy huquqiy qoliplarga sig'maydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining amaldagi kollizion normalari esa raqamli texnologiyalar shakllanishidan avval qabul qilingan bo'lib, virtual makondagi munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qoidalarni o'z ichiga olmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga keladigan transchegaraviy munosabatlarni huquqiy kvalifikatsiya qilishdagi kollizion to'siqlarni aniqlash hamda milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

NATIJALAR

O'rganishlar natijasida raqamli iqtisodiyotda huquqiy kvalifikatsiyaning birqancha markaziy muammolari aniqlandi. Birinchidan, elektron shartnomalarning yuridik tabiati xalqaro doktrinada "texnologik neytrallik" tamoyili asosida oddiy shartnoma sifatida baholansada, amaliyotda klassik bog'lamalarning samarasizligi namoyon bo'lmoqda. Chunki server bir davlatda, platforma operatori ikkinchi davlatda, sotuvchi va xaridor boshqa davlatlarda joylashgan sharoitda an'anaviy "shartnoma tuzilgan joy" (*lex loci contractus*) yoki "ijro joyi" (*lex loci solutionis*) bog'lamalarini aniqlash imkonsizlashib qolmoqda.

Shuningdek, xorijiy elektron raqamli imzolarni tan olishda milliy qonunchilikda kollizion mexanizmlar mavjud emasligi bitimlar shaklini kvalifikatsiya qilishda noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchidan, elektron tijoratda iste'molchilarni kollizion himoya qilish muammosi keskinlashgan. Xorijiy platformalar o'z ofertalarida erk muxtoriyati (*lex voluntatis*) orqali o'z davlati qonunchiligini manba sifatida kiritadilar, bu esa zaif taraf bo'lgan iste'molchini himoyasiz qoldiradi. Yevropa Ittifoqida "Rim I" reglamentining 6-moddasi orqali iste'molchi shartnomalari maxsus toifaga ajratilib, iste'molchining odatdagi yashash joyi huquqi (*lex domicilii*) imperativ norma orqali kafolatlangan. Ammo, O'zbekiston Fuqarolik kodeksida bunday maxsus norma mavjud emas.

Uchinchidan, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan kriptoaktivlar markazlashmagan tabiati sababli moddiy ashyolar kabi jismoniy joylashuvga ega emas. Bu holat ashyoviy statutning asosi bo'lgan mol-mulk joylashgan joy huquqi (*lex rei sitae*) qoidasini ishlaymay qolishiga olib keladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, kriptoaktivlar AQShda "qimmatli qog'oz", Germaniyada "kriptoqimmatlik, mulkiy huquq", Yevropa Ittifoqida MiCA reglamenti bo'yicha uch avtonom toifa - *elektron pul tokeni*, *aktivga bog'langan token*, *utilitar token* sifatida turlicha kvalifikatsiya qilinmoqda, bu esa global miqyosda yashirin kolliziyalarni yuzaga keltirib chiqarmoqda.

To'rtinchidan, smart-kontraktlar o'z mohiyatiga ko'ra turlicha kvalifikatsiya qilinmoqda va ularning ijrosi tarmoq bo'ylab bir vaqtda sodir bo'lganligi sababli maxsus bog'lamalarni talab etmoqda. Generativ sun'iy intellekt sohasida esa "promptosentrizm" doktrinasi doirasida ijodiy akt inson tomonidan algoritmik

boshqaruv bosqichiga o'tqazilishi sababli asarlarning huquqiy maqomini xalqaro miqyosda ko'p bosqichli kvalifikatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

MUHOKAMA

Elektron shartnomalar, platformalar orqali tuziladigan uch tomonlama munosabatlar va kriptofektivlarga nisbatan hududga bog'lanmagan muqobil yondashuvlarni qo'llash zarur.

Xususan, chet el elementi bilan murakkablashgan iste'molchi shartnomalarida faqat taraflarning erk muxtoriyatiga tayanib qolish adolat mezonlariga zid keladi. Tadbirkor o'z xizmatlarini O'zbekiston bozoriga yo'naltirgan hollarda milliy iste'molchini himoya qiluvchi kollizion qoida ishlab chiqilishi shart. Kriptofektivlar va smart-kontraktlar borasida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi PQ-3832-son qarori bilan milliy darajada dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsada, Fuqarolik kodeksida ularning xalqaro xususiy huquqiy maqomi va kollizion bog'lamalari aks etmagan. Mazkur bo'shliqlarni bartaraf etish raqamli aktivlar egasining odatdagi yashash joyi yoki taqsimlangan reyestr protokoli (blokcheyn) qoidalariga asoslangan avtonom yechimlarni talab qiladi.

Raqamli platformalarning faoliyati doirasida shakllanadigan munosabatlarning kvalifikatsiyasi ham an'anaviy fuqarolik-huquqiy modellar chegarasidan chiqib ketmoqda. Masalan, mashhur platformalar Amazon, AliExpress, Taobao orqali amalga oshiriladigan transchegaraviy savdoda platforma operatori o'zini faqat axborot vositachisi deb e'lon qilsada, amalda u to'lovlarni qabul qilish, logistika va sifat nazorati kabi majburiyatlarni to'liq o'z zimmasiga oladi. Bunday murakkab uch tomonlama munosabatlarni an'anaviy vositachilik

sifatida baholash iste'molchi yoki yetkazib beruvchining qonuniy manfaatlariga putur yetkazishi mumkin. Shu munosabat bilan, xalqaro xususiy huquqda platformaviy munosabatlarni o'ziga xos (*sui generis*) mustaqil shartnoma toifasi sifatida kvalifikatsiya qilish va unga nisbatan platforma operatorining asosiy faoliyat markazi joylashgan davlat huquqini emas, balki xizmatlar qaratilgan joy qonunchiligini tatbiq etish lozim.

Boshqa tomondan, generativ sun'iy intellekt va neyrotarmoqlar orqali yaratilgan raqamli kontentning transchegaraviy muomalasi intellektual mulk huquqining hududiylik tamoyilini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Masalan, bir davlatdagi foydalanuvchi xorijiy serverda joylashgan sun'iy intellekt tizimiga buyruq (prompt) kiritish orqali yaratgan dasturiy kod yoki grafik asar bir vaqtning o'zida bir nechta davlatda tijoratlashtirilganda, asarga bo'lgan mualliflik huquqini tan olish muammosi kelib chiqadi.

XULOSA

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish transchegaraviy savdo barqarorligi va kiber-makonda huquqiy aniqlikni ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Elektron tijoratda iste'molchilarni himoya qilish bo'yicha maxsus normani Fuqarolik kodeksiga kiritish: Yevropa Ittifoqining "Rim I" reglamenti modeliga asoslangan quyidagi normani kodeksga kiritish tavsiya etiladi: *"Jismoniy shaxs (iste'molchi) tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda tuzilgan shartnoma, basharti tadbirkor o'z faoliyatini ushbu mamlakat hududida amalga oshirayotgan yoki unga yo'naltirayotgan bo'lsa,*

iste'molchining odatdagi yashash joyi huquqi bilan tartibga solinadi. Taraflar tomonidan boshqa huquqning tanlanishi iste'molchini uning odatdagi yashash joyi bo'lgan davlat huquqining imperativ normalari orqali beriladigan himoyadan mahrum qila olmaydi".

2. Raqamli aktivlar va smart-kontraktlar bo'yicha maxsus kollizion normalarni joriy etish: Fuqarolik kodeksining VI bo'limini: (a) raqamli aktivlarga bo'lgan huquqlarga nisbatan *lex rei sitae* qoidasi o'rniga aktiv egasining odatdagi yashash joyi yoki taqsimlangan reyestr protokoli bilan belgilangan huquqqa bog'langan norma; (b) blokcheyn tarmog'ida "tuzilgan joy" va "ijro joyi" mezonlari aniqlashtirilgan holda smart-kontraktlarga nisbatan qo'llaniladigan kollizion normalar bilan to'ldirish taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Svantesson, D. J. B. (2020). *Private International Law and the Internet* (4th ed.). Kluwer Law International.
2. De Miguel Asensio, P. A. (2020). *Conflict of Laws and the Internet*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
3. Bonomi, A., Lehmann, M., Lalani, Sh. (2023). *Blockchain and Private International Law*. Brill / Nijhoff.
4. Savelyev, A. (2017). *Contract Law 2.0: "Smart" Contracts as the Beginning of the End of Classic Contract Law*. Information & Communications Technology Law, HSE Research Paper.

5. Shadikhodjaev, Sh. (2021). *Technological Neutrality and Regulation of Digital Trade: How Far Can We Go?* The European Journal of International Law, 32(3).
6. Yokubov, Sh. (2026). *Formulating The Doctrine Of Promptocentrism: Shifting The Creative Act To The Stage Of Intellectual Management Of Generation.* The American Journal of Political Science Law and Criminology.
7. Villata, F. C. (2024). *Cryptocurrencies and Conflict of Laws.* University of Milan Research Collection.
8. Rustambekov, I. R. (2022). *O'zbekiston Respublikasida Xalqaro xususiy huquqni isloh qilish.* Yuridik fanlar axborotnomasi.